

**Jismoniy shaxslarga muddatli bank omonatiga pul mablag'larini Bank mobil ilovasidan foydalangan holda onlayn tartibda qo'yish bo'yicha xizmat ko'rsatish to'g'risida
OMMAVIY ELEKTRON OFERTA**

Mazkur hujjat "Garant bank" AJ (keyingi o'rirlarda "Bank" deb yuritiladi) ning Omonatchilarga muddatli bank omonatiga pul mablag'larini Bankning mobil ilovasidan foydalangan holda onlayn tartibda qo'yish bo'yicha Shartnoma (keyingi o'rirlarda "Omonat shartnomasi" deb yuritiladi) tuzish borasidagi rasmiy elektron taklifi (keyingi o'rirlarda "Ommaviy elektron oferta" deb yuritiladi) hisoblanadi.

Ushbu Ommaviy elektron ofertani diqqat bilan o'qing va mazkur ommaviy elektron ofertaning barcha shartlari bilan tanishib chiqing. Mazkur Ommaviy ofertani qabul qilib, jismoniy shaxs/Omonatchi Ommaviy elektron ofertaning barcha shartlariga rozilagini (ularni qabul qilishini) tasdiqlaydi, bu Ommaviy elektron oferta shartlari uning qonuniy huquqlarini cheklamaydi.

Ommaviy elektron oferta qabul qilingan va Omonatchi tomonidan Omonat summasi Bankka kiritilgan vaqtidan boshlab, Omonat shartnomasi tuzilgan hisoblanadi, Omonat shartlari kuchga kiradi.

1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

1.1. Pul mablag'larini muddatli bank omonatiga onlayn tartibda qo'yish xizmati (keyingi o'rirlarda "Xizmat" deb yuritiladi) – Omonatchilarga "Garant Bank" elektron dasturiy majmuasidan foydalangan holda masofaviy onlayn rejimida muddatli bank omonatiga o'zbek so'mi yoki AQSh dollarida naqd pulsiz mablag'larni joylashtirish imkonini beruvchi xizmat.

1.2. «Garant Bank» elektron dasturiy majmuasi (keyingi o'rirlarda "Ilova" deb yuritiladi) – bu mobil/elektron qurilmalar uchun Bankning dasturiy mahsuloti, jismoniy shaxslar/Omonatchilarga bir bank (plastik) kartasidan boshqasiga pul mablag'larini onlayn tartibda o'tkazish, shuningdek Plastik kartani, Hamyonni, Talab qilib olinguncha omonat hisobvarag'ini onlayn tartibda (Internet tarmog'i orqali) boshqarish bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi vosita.

1.3. Omonatchi – voyaga etgan va muomala layoqatiga ega jismoniy shaxs, ya'ni Ofertani qabul qilgan Bank ilovasida ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchisi.

1.4. Omonat – Omonatchi ushbu Ofertada belgilangan tartibda va muddatlarda foizli yoki foizsiz qaytarish shartlarida Bankka qo'ygan mablag'lar.

1.5. So'mdagi/xorijiy valyutadagi bank plastik kartasi (keyingi o'rirlarda "PK" deb yuritiladi) – "Garant bank" AJ va O'zbekiston Respublikasi hududidagi boshqa bank tomonidan chiqarilgan, onlayn tartibda ishlaydigan to'lov kartasi.

1.6. Xabarnoma uchun manzil – Omonatchining pochta yoki elektron pochta manzili, Omonatchining SMS-xabarnoma xizmatiga, Ilovaga ulangan va Bankdan elektron xabarlar/bildirishnomalar olish uchun biriktirilgan mobil telefon raqami.

1.7. Elektron hamyon (keyingi o'rirlarda "Hamyon" deb yuritiladi) – bu "Garant bank" AJda Mobil bank ilovasi orqali ochilgan, o'zida naqdsiz pullarni saqlash va turli to'lovlarini amalga oshirish imkonini beradigan Omonatchining elektron hisobvarag'i.

1.8. Talab qilib olinguncha omonat hisobvarag'i – mazkur Oferta doirasida "Talab qilib olinguncha omonat hisobvarag'i" shartlari asosida ochilgan Omonatchining omonat hisobvarag'i tushunilib, unda Omonatchining uning birinchi talabi bo'yicha o'tkazilgan pul mablag'lari hisobi yuritiladi. "Garant bank" AJda ochilgan bank plastik kartalaridagi mablag'lar (elektron plastik jamg'arma kartalaridagi muddatli va jamg'arma omonatlaridan tashqari) talab qilib olinguncha omonatlar qatoriga kiradi.

1.9. Omonatchi hisobvarag'i – Omonatchi tomonidan "Garant bank" AJda ochilgan, u orqali Omonatchi pul mablag'larini Omonatga (Omonat hisobvarag'iga) qo'yish uchun o'tkazadigan omonat hisobvarag'i.

1.10. Maxfiylik – uchinchi shaxslarga noma'lum bo'lган, xaqiqiy yoki potensial qiymatga

ega bo‘lgan, qonuniy asosda erkin foydalanish imkoni bo‘lmasan va tomonlar o‘z maxfiyligini himoya qilish choralarini ko‘radigan ma'lumotlarni (tijorat siri, bank siri) ifodalaydi.

1.11. **Uchinchi shaxs** – ushbu Ommaviy elektron oferta va (yoki) Omonat shartnomasining Tomoni bo‘lmasan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs.

2. ROZILIK BERISH TARTIBI

2.1. Jismoniy shaxs tomonidan bank ilovasida “Omonatni ochish” tugmasini bosish orqali amallar bajarilganda, omonatni ochish ekranida “Omonatni ochish” tugmasini bosish orqali siz Bank omonati shartnomasini tuzish taklifi shartlariga rozilik bildirasisiz. “Garant Bank” AJ mobil ilovasidagi tasdiqlash kodi uning ushbu Ommaviy elektron oferta shartlariga so‘zsiz roziligini bildiradi (Ofertani qabul qilish). Quyida keltirilgan shartlarga rozi bo‘lmasangiz, unda sizdan Bank ilovasidan foydalanmaslikni va Omonat ochish bo‘yicha harakatlarni amalgalashtirishga oshirmsalikni so‘raymiz.

2.2. Agar siz mazkur shartlarga rozi bo‘lmasangiz, omonat ochish uchun hech qanday harakat qilmang.

3. SHARTNOMA PREDMETI

3.1. Shartnomaning predmeti – Omonatchi tomonidan Bankka onlayn tartibda mobil bank ilovasidan foydalangan holda Omonatchining pul mablag’larini muddatli bank omonatiga (keyingi o‘rinlarda “Omonat” deb yuritiladi) joylashtirish, shuningdek Omonatchi tomonidan Bank ilovasidan foydalanish orqali onlayn tarzda o‘tkazilgan pul mablag’larini qabul qilib olish va mazkur Omonat shartnomasida nazarda tutilgan shartlarda va tartibda uning foizlarini to‘lab, omonat summasini (ya’ni, Omonat) qaytarish bo‘yicha Bankning majburiyatlarini.

4. OMONAT SHARTLARI

- 4.1. Omonat nomi – “Kunlik”;
- 4.2. Omonat turi – Onlayn;
- 4.3. Valyuta turi – O’zbek so’mi;
- 4.4. Omonat bo‘yicha yillik foiz stavkasi – 20 (yigirma) foiz;
- 4.5. Omonat muddati – 555 (besh yuz ellik besh) kun;
- 4.6. Omonat shartlari: Omonat naqdsiz shaklda Bankning Illovasi orqali qabul qilinadi;
- 4.7. Foizlarni to‘lash – Foizlar har kuni hisoblanadi va Omonatchining talab qilgunicha hisobvarag’iga har kuni o‘tkaziladi hamda Omonatchi uni mustaqil ravishda tasarruf etishi mumkin;
- 4.8. Ochilgan omonatni to‘ldirish imkoniyati – omonat shartnomasi tuzilgan kundan boshlab 333 (uch yuz o’ttiz uch) kun ichida mumkin;
- 4.9. Omonatdan pul mablag’larini qisman qaytarish (olish) – Mavjud emas;
- 4.10. Kapitalizatsiya – Mavjud emas;
- 4.11. Omonatning minimal summasi – 10 000 (o’n ming) o’zbek so’mi;
- 4.12. Omonatning maksimal summasi – Chegaralanmagan;
- 4.13. Omonatni muddatidan oldin yopish tartibi:
Omonatchi omonat shartnomasini istalgan vaqtida muddatidan oldin bekor qilishga haqli, omonat shartnomasining amal qilish muddati davomida hisoblangan va to‘langan foizlar stavkasi yillik 20 (yigirma) foiz.

5. OMONAT BO‘YICHA FOIZLARINI HISOBBLASH VA TO‘LASH TARTIBI

5.1. Omonat Omonatchining plastik kartasi yoki Bankda ochilgan shaxsiy hisobvarag’idan pul mablag’larini Omonat hisobvarag’iga o‘tkazish yo‘li bilan ochilishi va uning

miqdori to'ldirilishi mumkin. Omonat miqdori bo'yicha foizlar Bankka Omonatga pul mablag'lari o'tkazilgan kunning ertasidan boshlab, uning Omonatchiga qaytarilishidan yoki boshqa sabablarga ko'ra Omonatchining hisobvarag'idan yechib olinishidan oldindi kungacha hisoblanadi.

5.2. Butun oy sifatida mazkur oydag'i haqiqiy kalender kunlari soni (365 kunlik bazaviy davrga asosan) hisobga olinadi. Omonatchi hisoblangan foizlarni va omonatning asosiy summasini asosiy omonat muddati tugaganidan kunning ertasiga olishi mumkin.

5.3. Omonat bo'yicha foizlar har kuni hisoblanadi va Omonatchining nomiga ochilgan 22400 – "To'lov uchun hisoblangan foizlar" subhisobvarag'ida jamg'ariladi. Hisoblangan foizlar ilovada ochilgan talab qilib olinguncha hisobvarag'iga o'tkazish yo'li bilan to'lanadi. Omonat bo'yicha hisoblagan foizlar kapitalizatsiya qilinmaydi.

5.4. Foizlarini hisoblash shartlari va Omonatning hisoblangan foizlari bo'yicha to'lovlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari, Bankning ichki qoidalari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

5.5. Omonat muddati tugagandan so'ng, Omonat (Omonatning pul mablag'lari va hisoblangan foizlar) Omonatchining talab qilib olinguncha onlayn hisobvarag'iga o'tkaziladi, undan Omonatchi pul mablag'larini PKga o'tkazishi mumkin. Bunda, Omonatning Omonatchining talab qilib olinguncha hisobvarag'ida bo'lgan davri uchun foizlar hisoblanmaydi va to'lanmaydi.

5.6. Omonat hisobvarag'inining muzlatib qo'yilishi oqibatida, Omonat hisobvarag'ida turgan pul mablag'lari Bank tomonidan foydalanimagan davr uchun Omonatchiga foizlar hisoblanmaydi va to'lanmaydi.

5.7. Agar Omonat vakolatli organlarning dalolatnomasiga (buyrug'iga) muvofiq pul mablag'larining yechib olinishi tufayli muddatidan oldin yopilgan taqdirda, shu vaqtga qadar to'langan foizlar Omonat summasidan ushlab qolinadi.

6. TOMONLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

6.1. Omonatchi quyidagi huquqlarga ega:

6.1.1.Omonatni mustaqil ravishda tasarruf etish va masofadan boshqarish. Zarurat bo'lganda, Bankning filialida o'z ixtiyoriga ko'ra, Omonat bo'yicha harakatlarni amalga oshirishi mumkin bo'lgan (belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan) vakilini tayinlash;

6.1.2.Omonat muddati tugashi bilan Omonat summasini so'mdagi/valyutadagi bank plastik kartasi hisobvarag'iga o'tkazish yoki pul mablag'larini mazkur Shartnomada nazarda utilgan tartibda va shartlarda yangi muddatga Omonatga qo'yish;

6.1.3.Ushbu Oferta shartlariga muvofiq maksimal 5 (besh) ta talab qilib olinmaydigan omonatlarni ochish.

6.2. Omonatchi quyidagilarga majbur:

6.2.1.Omonatga kirim qilish (ochish) uchun omonatchining PK hisobvarag'ida yoki Bankda ochilgan hisobvarag'ida kerakli miqdordagi pul mablag'iga ega bo'lish;

6.2.2.Omonat shartnomasini masofadan turib tuzish uchun mazkur Ofertani qabul qilgan kunda Omonatga pul mablag'larining o'tkazilishini ta'minlash;

6.2.3.Omonat bo'yicha hisobvaraq ochish uchun barcha amaliyotlarni mazkur Shartnomaga shartlariga muvofiq amalga oshirish;

6.2.4.Omonatni ochish yoki qayta rasmiylashtirish bo'yicha amaliyotlarni amalga oshirish vaqtida Bankning mobil ilovasida uzilish yoki texnik nosozlik ro'y berganda, qisqa muddat ichida Bankka xabar berish;

6.2.5.PK va/yoki Omonat bo'yicha Bank hisobvarag'ida uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan turli noqonuniy harakatlarning oldini olish uchun, Bank tomonidan beriladigan, Mobil bank ilovasiga kirish huquqini beradigan "Login", "Parol" va "PIN" kodlarning, shuningdek, ilovaga kiritilgan parollarning himoyasi va xavfsizligini ta'minlash, ularni tarqatmaslik va uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik;

6.2.6.Omonat bilan bog'liq barcha amaliyotlarni mobil aloqa yoki Internet orqali uchinchi shaxslarning ishtiropkisiz va kuzatuvisiz amalga oshirish;

6.2.7.Mobil bank ilovasidan o‘rnatilgan mobil/elektron qurilmada zararli dasturlar va ilovalardan, himoyalanmagan ularishlardan foydalanmaslik.

6.2.8.Omonat muddati tugagach, Omonat summasidagi mablag‘larni “Garant Bank” AJ so‘m/valyuta plastik kartasiga o‘tkazish;

6.2.9.Mobil telefon raqamini o‘zgartirganda/axborot xizmatlariga boshqa mobil aloqa raqamlarini/telefon raqamini/elektron pochta manzilini ulaganda, shu jumladan avvalgilarini uzunganda, 1 (bir) bank ish kuni ichida Bankni bu haqda xabardor qilish va yangi mobil telefon raqami/elektron pochta manzili haqida ma’lumot taqdim etish;

6.2.10. Xizmatdan noqonuniy maqsadlarda foydalanmaslik;

6.2.11. Bankka murojaat qilganda mijozlar topshiriqnomalarini bajarish uchun komissiya to‘lovlar Tariflariga muvofiq Bank xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun komissiya to‘lovi ni to‘lashga rozilik beradi.

6.3. Bank quyidagi huquqlarga ega:

6.3.1.Omonatchi tomonidan Omonat bo‘yicha Xizmatdan foydalangan holda Mobil bank ilovasi orqali PKdan pul o‘tkazish yo‘li bilan naqd bo‘limgan shaklda o‘tkazilgan pul mablag‘larini naqd pul shaklda berilmaslik;

6.3.2.Omonat, agar Omonat shartnomasida belgilangan va uning Omonatni saqlash muddati bo‘yicha shartlarida ko‘rsatilgan muddatdan oldin talab qilib olingan taqdirda, hisoblangan foizlar bo‘yicha foizlarni qayta hisoblash va omonatning asosiy summasidan ushlab qolish;

6.3.3.Omonatni saqlash muddati tugagan kunning ertasi kunidan kechiktirmay, Omonatchining talab qilib olinguncha hisobvarag‘i – 20206 hisobvarag‘iga asosiy omonat summasini va hisoblangan foizlarni o‘tkazish;

6.3.4.Omonat (Omonat hisobvarag‘i) muzlatib qo‘yilgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari talablariga muvofiq, Omonat bo‘yicha sarflash operatsiyalarini amalga oshirishni to‘xtatish;

6.3.5.Omonatning muzlatilishi natijasida Bankning undagi pul mablag‘laridan resurs sifatida foydalanmagan davri uchun, Omonat bo‘yicha foizlar hisoblamaslik;

6.3.6.Bank o‘zining ixtiyoriga bog‘liq bo‘limgan holatlarga ko‘ra omonatga taqdim qilingan pul mablag‘laridan resurs sifatida foydalanmagan davri uchun, Omonat bo‘yicha foizlar hisoblamaslik;

6.3.7.Bank, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, Omonatchi (Mijoz) borasida tegishli tekshiruvni o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan Omonatchi bilan ish munosabatlari kirishish to‘g’risida mustaqil qaror qabul qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

Omonatchining masofaviy xizmatlardan foydalangan holda shubhali amaliyotlarni amalga oshirganligi aniqlagan taqdirda, Bank quyidagi choralarini ko‘rish huquqini o‘zida saqlab qoladi:

– Omonatchining amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligi to‘g’risida yozma tushuntirish bergunicha mazkur xizmatlarni taqdim etishni to‘xtatib turish va/yoki masofaviy xizmat ko‘rsatishni rad etish;

– Omonatchining masofaviy xizmatlardan foydalangan holda shubhali amaliyotlarni o‘tkazganligiga shubha qilinganda, Omonatchi tomonidan bevosita bajarilayotgan amaliyotning amalga oshirilishi jarayonini tekshirish uchun Omonatchini uning joylashgan joyi (pochta manzili) bo‘yicha yoki masofaviy xizmatlar ko‘rsatish to‘g’risidagi shartnomada (Ofertada) ko‘rsatilgan manzili bo‘yicha o‘rganish;

– shubhali amaliyotlarni amalga oshirishda foydalangan mazkur xizmatlarni ko‘rsatishni 3 (uch) ish kuni mobaynida to‘xtatib turish;

– Agar Omonat va bank xizmatlaridan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida foydalaniishi borasida asosli shubhalar bo‘lganda, mazkur Omonat shartnomasini belgilangan tartibda bekor qilish.

Masofaviy xizmatlardan foydalanayotgan Omonatchini uning joylashgan joyi (pochta manzili) yoki masofaviy xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomada ko'rsatilgan manzili bo'yicha tekshirganda, Bank Omonatchining (Mijozning) O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunchiligi talablariga amal qilayotganligiga alohida e'tibor qaratadi.

6.3.8.Muddatli bank omonati shartnomasi shartlarini bir tomonlama sudsiz tartibda Omonatchini ogohlantirmsandan ijo etishdan quyidagi hollarda voz kechish:

- a) Omonatchi tomonidan Muddatli bank omonati shartnomasi shartlari buzilsa;
- b) Shartnomaviy munosabatlar Omonatchi tomonidan jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishda, terrorizmni va ommaviy qirg'in qurollari tarqatishni moliyalashtirishda foydalanilayotgani to'g'risida gumon mavjud bo'lsa;
- c) Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni va ommaviy qirg'in qurollari tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlariga muvofiq, mijozni lozim darajada tekshirish imkoniyati mavjud bo'lmasa taqdirda;
- d) Har qanday boshqa holatlarda Bankning xohishiga ko'ra yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Ommaviy oferta tomonidan ko'zda tutilgan ravishda;

6.3.9.Omonat bo'yicha hisob-kitoblar va foizlarni hisoblashda texnik nosozliklar aniqlangan taqdirda, Omonat shartlariga muvofiq qayta hisob-kitob o'tkazish. Ortiqcha hisoblangan va to'langan pul mablag'lari aniqlangan taqdirda, Bank Omonatchini oldindan ogohlantirgan holda va hisoblangan va to'langan foizlar tarixini taqdim etgan holda Omonatning goldig'idan ularni yechib olish huquqiga ega.

Omonat yechib olinganidan keyin texnik nosozliklar aniqlangan taqdirda, Bank Omonatchiga tegishli tartibda o'zaro hisob-kitoblarni o'tkazish to'g'risida asosli hisob-kitoblarni ilova qilgan holda yozma murojaat qilish huquqiga ega.

6.4. Bank quyidagi majburiatlarni o'z zimmasiga oladi:

6.4.1.Omonat bo'yicha shartlarni elektron shaklda, Bankning quyidagi veb-saytida Internet orqali ko'rsatish: www.garantbank.uz:

6.4.2.Omonatchi tomonidan Ommaviy oferta tasdiqlanganidan (qabul qilinganidan) va mazkur Omonat shartnomasi kuchga kirganidan so'ng, pul mablag'larni kirim qilish, shuningdek Omonat bo'yicha amaliyotlarni ro'yxatdan o'tkazish, avtomatik tartibda shaxsiy hisobvaraq ochish;

6.4.3.Omonat bo'yicha foizlarni hisoblash va to'lash, shuningdek, Omonatchining ilk talabidayoq, pul mablag'larni mazkur Omonat shartnomasi shartlariga muvofiq omonatchining talab qilib olinguncha hisobvarag'iga naqdsiz shaklda qaytarish;

6.4.4.Bank sirini bo'lgan ma'lumotlarning saqlanishini ta'minlash, biroq qonunchilikda belgilangan tartibda uchinchi shaxslarga ma'lumotlarni uzatish bundan mustasno.

6.4.5.Bank tomonidan, Omonatchining topshirig'isiz, kreditlar, mikroqarzlar va lizing bo'yicha qarzdorliklarni so'ndirish uchun Omonat hisobvarag'idan pul mablag'larni o'tkazganda, Bank, bu mablag'larni o'tkazgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay, Omonatchiga Omonat hisobvarag'idan mablag'larni qancha miqdorda, kimga va nima sababdan o'tkazganligini ko'rsatgan holda bildirishnoma (xabarnoma) yuborishi shart.

6.4.6.Agar Bank tomonidan Omonatchining omonat hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar to'xtatib qo'yilsa, Bank operatsiyalar to'xtatilgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay, Omonatchiga uning hisobvarag'i bo'yicha xizmat ko'rsatish to'xtatilganligi va uning sabablari to'g'risida bildirishnoma (xabarnoma) yuborishi shart.

6.4.7.Mazkur Ofertaning 6.4.5 va 6.4.6-bandlarida nazarda tutilgan bildirishnomalar (ma'lumotnomalar) Omonatchiga shaxsan, bank filialiga murojaat qilganda yoki ilovada ro'yxatdan o'tganda omonatchi tomonidan ko'rsatilgan mobil telefon raqami/elektron pochta orqali yetkazilishi mumkin. Omonatchi xabarnoma (ma'lumotnoma) yetkazish usulini bankka shaxsan yoki pochta orqali yozma ariza taqdim etish yo'li bilan o'zgartirish huquqiga ega. Bunda Omonatchidan qabul qilingan ariza Bank tomonidan uning omonat hisobvaraqlari bo'yicha alohida kartotekada saqlanadi.

7. OMONATCHINING SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARIGA ISHLOV BERISHGA ROZILIK BERISH TARTIBI

7.1. Omonatchi Bankning Mobil ilovasida ro'yxatdan o'tish paytida ko'rsatgan uning shaxsga doir ma'lumotlari ishonchli ekanligini va bevosita Omonatchidan olinganligini tasdiqlaydi (ular Omonatchining shaxsiy ma'lumotlari hisoblanadi).

Omonatchi quyidagi takliflarni qabul qiladi va rozilikni bildiradi:

- Bank faoliyati (bank mahsulotlari, aksiyalar va boshqa bank xizmatlari) to'g'risidagi ma'lumotlarni, shu jumladan reklamani olishga roziliginibildiradi;

- Bankka Omonatchiga har qanday aloqa vositalaridan foydalangan holda sms/elektron pochta/audio eshittirish/pochta jo'natish, axborot-kommunikatsiya xizmatlari orqali pochta jo'natmalarini, shuningdek boshqa turdag'i pochta jo'natmalarini va bildirishnomalarini jo'natish imkonini beradi;

- Davlat personallashtirish markazidan olingen shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga hamda kredit byurolari, soliq organlari uy-joy communal xizmatlari, uyali aloqa operatorlari, protsessing markazlari (Uzkard, Xumo va boshqalar) tijorat banklari va boshqa tashqi manbaalardan shaxsiy ma'lumotlardan foydalangan holda ma'lumotlarni olishga roziliginibildiradi, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: a) pochta indekslarini kod bazasi bilan avtomatik tekshirish, Omonatchi ma'lumotlarini aniqlashtirish (pochta aloqasi, elektron pochta orqali); b) Omonatchining davriy aloqalari (telefon (shu jumladan mobil aloqa), elektron pochta yoki Internet orqali).

7.2. Ushbu rozilik Ishtirokchi tomonidan uning O'zbekiston Respublikasi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunining 21-moddasiga asosan shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga berilgan yozma roziligi sifatida e'tirof etiladi.

7.3. Ushbu bilan Omonatchi Bank tomonidan Omonatchining uning shaxsga doir ma'lumotlarini ishlov berishga roziliginibildiradi va ushbu rozilik O'zbekiston Respublikasi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuniga asosan Omonatchi tomonidan uning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish uchun yozma roziligi sifatida tan olinadi. Omonatchi reklama olish va Omonatchining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga berilgan ushbu rozilik muddatsiz ekanligini va bu rozilikni bekor qilish uchun Bankka yozma ariza yuborish orqali bekor qilinishi mumkinligini biladi.

7.4. Bekor qilish sanasi bank faoliyati va (yoki) shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishslash to'g'risidagi reklamani olishga rozilikni bekor qilish to'g'risidagi yozma arizani bankka olgan kun hisoblanadi.

8. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

8.1. Tomonlar mazkur Omonat shartnomasi shartlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

8.2. Omonatchi mazkur Omonat shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida unda yuzaga keladigan har qanday zarar yoki boshqa salbiy oqibatlar uchun javobgar bo'ladi.

8.3. Omonatchi himoyalanmagan ulanishdan foydalilaniladigan yoki zararli dasturlar va ilovalar xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan qurilmada o'z shaxsiy ma'lumotlarini kiritishda ularning xavfsizligi uchun to'liq javobgar hisoblanadi.

8.4. Bank Omonat shartnomasi shartlarini lozim darajada bajarilmaganligi uchun agar bunday bajarilmaslik Omonatchi tomonidan Omonat shartnomasi shartlarining bajarilmasligi, jumladan Bank tomonidan berilgan va dasturga kirish huquqini beradigan "Login", "Parol" va "PIN" kodlarning himoyasi va xavfsizligi bo'yicha shartlarga amal qilinmasligi oqibati bo'lsa javobgar hisoblanmaydi.

8.5. Bank Omonatchining mazkur Taklif/Omonat shartnomasi shartlari bilan tanishmaganligi va (yoki) o'z vaqtida tanishmaganligi sababli Omonatchiga ko'rghan zarar uchun javobgar hisoblanmaydi.

8.6. Bank o‘zining nazorat doirasida bo‘lmanan sabablar tufayli mazkur Omonat shartnomasi shartlarini lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgar bo‘lmaydi. Bankning nazorat doirasi ilovaning o‘zini ishlay olishi qobiliyati bilan cheklanadi va uchinchi shaxslarning aybi bilan ro‘y bergen yoki davlat organlari yoki sud hokimiyati tomonidan taqilqlar yoki cheklowlar qo‘yilishi bilan bog‘liq uzilishlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

8.7. Omonatchi tomonidan oldin Bankdan xabarnomalar yuborilishi uchun biriktirilgan mobil aloqa (mobil telefon) raqamining yoki boshqa aloqa ma’lumotlarining o‘zgartirilganligi haqida Omonatchi tomonidan o‘z vaqtida xabar berilmagan taqdirda, Bank Omonat haqidagi ma’lumotlarning oshkor qilinganligi uchun javobgar bo‘lmaydi.

8.8. Tomonlar mazkur Omonat Shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun, agar bu bajarmaslik Omonat Shartnomasi tuzilganidan keyin yuzaga kelgan, Tomonlar ongli choralar bilan oldindan ko‘ra olmaydigan va oldini olib bo‘lmaydigan favqulodda holatlar oqibatida yuz bergen bartaraf etib bo‘lmaydigan kuchlar (fors-major) oqibati bo‘lsa, Tomonlar javobgarlikdan ozod etiladi.

9. MAXFIYLIK

9.1. Taraflar bank siri, tijorat siri va ikkinchi tarafdan olingan va (yoki) Omonat shartnomasi bilan bog‘liq axborot maxfiyligini ta‘minlash majburiyatini oladilar. Bunday axborotni uchinchi shaxslarga uzatish (e‘lon qilish yoki Ommaviy lash) va faqatgina ushbu Ommaviy elektron oferta hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘zda tutilgan hollardagina, yoxud qolgan hollarda ikkinchi tarafning yozma roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

10. FORS-MAJOR HOLATLAR

10.1. Taraflar Ommaviy elektron oferta va (yoki) Omonati shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganliklari va (yoki) qisman bajarmaganliklari uchun, agar bu Ommaviy elektron oferta va (yoki) Omonati shartnomasi tuzilganidan keyin yuzaga kelgan va Taraflar mavjud choralar bilan ularning oldini olishning imkonini bo‘lmanan yengib bo‘lmas kuch (fors-major) oqibatida sodir bo‘lgan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod etiladilar.

10.2. Yengib bo‘lmas kuch oqibati deganda quyidagilar tushuniladi: zilzila, suv toshqini, yong‘in, boshqa tabiiy ofatlar, epidemiyalar, davlat organlarining Ommaviy elektron oferta va (yoki) Omonat shartnomasi shartlarini bajarishga to‘sinqilik qiladigan qarorlari va harbiy harakatlar.

10.3. Ko‘rsatilgan oqibatlar sodir bo‘lgan vaqtida, yengib bo‘lmas kuch ta’siriga ishora qiluvchi Taraf, bu haqda ikkinchi Tarafni darhol yozma ravishda xabardor etishi lozim.

10.4. Agar ko‘rsatilgan oqibatlar uch oydan ortiq davom etsa, Taraflar Ommaviy elektron oferta va (yoki) Omonat shartnomasi majburiyatlarini bajarishni ikkinchi Tarafni ogohlantirgan holda bir tomonlama to‘xtatishga haqlidir. Bunday holda Omonat shartnomasi bajarilmagan qismi bo‘yicha bekor qilinadi va Taraflar Omonat shartnomasining bajarilgan hamda bajarilmagan qismlari bo‘yicha yakuniy hisob-kitoblarni amalga oshiradilar.

11. MAVJUD BANK OMONATLARIKA OMMAVIY ELEKTRON OFERTANI JORIV ETISH

11.1. Agar Omonatchi o‘zi tomonidan ilgari Bankka xuddi shunday omonat shartlari bilan qo‘yilgan (ochilgan) Omonatni Bankning ilovasiga ularshni va Omonatni ilova orqali boshqarishni xohlasa, Omonatchi shunday Omonat ochilgan Bank muassasasiga ko‘rsatilgan Omonatni Bankning ilovasiga o‘tkazish to‘g‘risida “Garant bank” AJdag‘i o‘z bank rekvizitlarini ko‘rsatgan holda, yozma ariza bilan murojaat qilishi kerak.

11.2. Bunday holatda, mazkur Omonat shartnomasi shartlari Omonatchi tomonidan bank ilovasi orqali birinchi operatsiya amalga oshirilgan paytdan boshlab Omonatchi tomonidan qabul qilingan, ya’ni unga rozilik bildirilgan hisoblanadi.

12. NIZOLARNI KO‘RIB CHIQISH TARTIBI

12.1. Mazkur Shartnoma bo‘yicha kelib chiqadigan har qanday nizo Omonatchining yozma murojaati asosida tinch yo‘l bilan hal qilinadi. Murojaatni ko‘rib chiqish muddati va uning mazmuniga qo‘yiladigan talablar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq belgilanadi.

12.2. Agar yuzaga kelgan nizoni tinch yo‘l bilan hal qilishga erishilmasa, u O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi belgilangan tartibda Bank joylashgan hududdagi tegishli sud idoralarida ko‘rib chiqiladi.

13. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

13.1. Ushbu Ommaviy oferta va Muddatli bank omonati shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, har qanday noqonuniy ustunlik yoki boshqa imtiyozlarni olish maqsadida, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vakillari ushbu shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga ta’sir qilish uchun, har qanday shaxslarga haq to‘lamaydilar, to‘lashni taklif qilmaydilar va hech qanday pul mablag‘lari yoki qimmatbaho buyumlarni to‘lashga yo‘l qo‘ymaydilar.

13.2. Ushbu Ommaviy oferta va Muddatli bank omonati shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vakillari, amaldagi qonunchilikka muvofiq pora berish/olish, tijoratda pora evaziga og‘dirib olish, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini va xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlarni sodir etmaydilar.

13.3. Ushbu Ommaviy oferta va Muddatli bank omonati shartnomaning Tomonlaridan har biri boshqa Tomonning xodimlarini biron-bir tarzda rag‘batlantirishdan bosh tortadi, shu jumladan ularga pul summalarini, sovg‘alarini, ularning nomiga ishlarni (xizmatlarni) beg‘araz ravishda bajarish va boshqa usullar bilan, xodimni ma‘lum qaramlikka qo‘yib qo‘yadigan va ushbu xodim tomonidan uni rag‘batlantiruvchi tomonning foydasiga har qanday harakatlarni sodir etishga yo‘naltirilgan rag‘batlantirishdan bosh tortadi.

13.4. Agar biron-bir Tomon korrupsiyaga qarshi biror shart buzilgan yoki sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan gumon yuzaga kelgan taqdirda, tegishli Tomon yozma shaklda yoki og‘zaki ravishda ishonch telefonlari orqali boshqa Tomonga xabar beradi.

13.5. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so‘ng, shartnoma bilan bog‘liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

13.6. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo‘srimcha shartlarda belgilangan korruptsianing oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo‘yicha hamkorlikni ta’minlaydilar.

14. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING NOREZIDENTI BO‘LGAN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG’INI HISOBBLASH

14.1. Omonatchi - O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxsga (jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining soliq to‘lovchilari) Omonat bo‘yicha foizlarni to‘lash O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan soliq stavka bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i ushlab qolningidan keyin amalga oshiriladi.

Omonat muddatidan oldin qaytarilgan taqdirda Omonatchiga - O‘zbekiston Respublikasining soliq norezidentiga oldindan to‘langan foizlar Omonatning asosiy summasidan ushlab qolinadi hamda ushlab qolningan soliq qaytarilmaydi.

14.2. Bank tomonidan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini ushlab qolmaslik uchun, omonatchi xorijiy jismoniy shaxs uning nomiga rasmiylashtirilgan norezidentning soliq rezidentligini tasdiqlovchi hujjatini oldindan ya‘ni Muddatli bank omonati shartnomasi tuzilgan paytdan boshlab Omonat muddati

mobaynida omonat bo'yicha foizlarni to'lash sanasidan oldin Bankka kelgan holda taqdim qilishi lozim (jismoniy shaxsning soliq rezidentligini tasdiqlovchi hujjatda ko'rsatilgan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasi soliq rezidenti deb norezident e'tirof etiladi).

15. BOSHQA SHARTLAR

15.1. Mazkur Omonat Shartnomasida ko'zda tutilmagan shartlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

15.2. Mazkur Ommaviy elektron ofertaga rozilik berish bilan, Omonatchi Omonat shartnomasining barcha shartlariga o'zining so'zsiz roziligidini tasdiqlaydi va mazkur Omonat shartnomasi pul mablag'lari Omonat bo'yicha shaxsiy hisobvaraqa naqdsiz yo'l bilan kelib tushgan vaqtdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

15.3. Omonatlarning qaytarilishi O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 18-fevraldaggi O'RQ-1031-sон "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 26-moddasiga ko'ra, bir bankda bir omonatchiga to'lanadigan kompensatsiya kafolatlash obyekti qoldig'ining ikki yuz million so'm yoki undan kam to'liq hajmini, agar kafolatlash obyektining qoldig'i ikki yuz million so'mdan ko'p bo'lsa faqat ikki yuz million so'mni tashkil etadi.

15.4. Mazkur Omonat Shartnomasi Omonat yopilganidan va Omonatga qo'yilgan pul mablag'lari mazkur Omonat shartnomasi shartlariga muvofiq hisoblangan foizlar bilan birga Omonatchining so'mdagi/valyutadagi bank plastik kartasiga to'lab berilganidan keyin o'z yuridik kuchini yo'qotadi.

15.5. Ommaviy elektron oferta va Omonat shartnomasini tuzishda taraflar Ommaviy elektron oferta va Omonat shartnomasining amal qilish muddati davomida va shu muddatdan keyin korrupsion harakatlarni sodir etmaslikka rozi bo'ladilar.